

SHARTNOMA № 2
(Mahsulot yetkazib berish haqida)

1 dekabr 2021 yil

G'ozg'on shahar

"Marmarobod-Jilosi" MCHJ bundan buyon ta'minotchi deb yuritiladi nomidan nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari YA.Ummatov hamda ikkinchi tomondan "G'ozg'on shahar maktabgacha ta'lim bo'limi" bundan buyon iste'molchi deb yuritiladi nomidan nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari G.Rahmatova ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 Ushbu shartnoma bo'yicha ta'minotchi iste'molchining buyurtmasiga asosan belgilangan oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beradi. Iste'molchi esa oziq-ovqat mahsulotlarini belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

1.2 Ta'minotchi va iste'molchi uchun:

T/r	Nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	Sut	litr	1900	7500	14250000
2	Kefir	litr	741	6 000	4446000
3	Smetana	kg	27	22 000	594000
4	Tvorog	kg	94	25 000	2350000
	Jami:				21640000

Summa: 21 64 0000 (yigirma bir million olti yuz qirq ming) so'm

2. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI.

Ta'minotchining majburiyatlari:

2.1 Shartnomaning 1.2 bandida ko'rsatilgan miqdordagi va sifatidagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'molchiga yuk xati bilan topshirish.

2.2 Agarda shartnoma shartlariga muvofiq deb topilsa, mahsulotlarni tashib berish.

Iste'molchining majburiyatlari:

2.3 Oziq-ovqat mahsulotlarini 2 kun muddatda ko'zdan kechirish. Maxsulotlarni mazkur shartnoma talablariga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda, iste'molchi oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilmaydi.

2.4 Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilinganligi to'g'risida har hafta yakuni bilan 1 ta ishonch qog'ozi bilan rasmiylashtirish majburiyatini oladi.

2.5 Shartnoma belgilangan tartibda oziq-ovqat mahsulotlari haqini to'laydi.

3. SHARTNOMA SUMMASI VA HISOB-KITOB TARTIBI.

3.1 Mazkur shartnoma summasi so'mda haq to'lanadi.

3.2 Mazkur shartnoma bo'yicha hisob-kitoblar pulni ko'chirish yo'li bilan oldindan 30 foizini to'lash va mahsulot qabul qilingan paytdan boshlab 30 kun ichida qolgan 70 foizini to'lashni amalga oshiradi.

3.3 Ta'minotchining aybi bilan iste'molchi oziq-ovqat mahsulotlarini ko'zdan kechirish imkoniyatiga ega bulmasa oziq-ovqat mahsulotlari haqini to'lashni kechiktirishga haqli.

4. MAXSULOTLARNI TOPSHIRISH SHARTLARI.

4.1 Oziq-ovqat mahsulotlarining tasodifan nobud bo'lishi mahsulotlarni topshirilgan paytdan boshlab iste'molchiga o'tadi.

4.2 Oziq-ovqat mahsulotlarini topshirishdan boshlab kelishilgan muddatga kadar ta'minotchi sifatiga kafolat beradi.

4.3 Iste'molchi mahsulotlarni qabul qilib olishda mahsulot miqdorining kamligi, sifatsizligi aniqlangan taqdirda mahsulotlarni qabul qilib olmaslik xuquqiga ega.

5. SHARTNOMANING BAJARISH MUDDATI.

5.1 Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatga olingandan boshlab qonuniy kuchga kiradi va amal qilish muddati «1» dekabr 2021 yildan boshlab «31» dekabr 2021 yilgacha qadar etib belgilandi.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1 Maxsulotlarni topshirish muddatini buzganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va 0.4 foiz miqdorda jarima to'laydi.

6.2 To'lovni kechiktirilganligi uchun iste'molchi xar kechiktirilgan kunga to'lovi kechiktirilgan summaning 0.4 foizi miqdorida, lekin ushbu summaning 50 foizidan oshmagan miqdorda tovon to'laydi.

6.3 Boqimandani to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6.4 Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

7. NIZOLARNI XAL QILISH.

7.1 Ushbu shartnoma yuzasidan taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan xal etiladi.

7.2 Muzokaralar olib borish yuli bilan nizoni xal etish imkoniyati bo'lmagan takdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tegishli sud organlariga murojaat etiladi.

8. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISH.

8.1 Tomonlarning xohish istagiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan hollarda noqulay ob-xavo sharoitlari, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar (fors-major) tufayli yetkazib berilmagan yoki to'lab berilmaganligi shartnoma shartlarini ijro etishi buzilgan deb hisoblanmaydi va ushbu holatda tomonlarni shartnomani bajarish mudati kelishilgan muddatga kechiktriladi.

9. BOSHQA SHARTLAR.

9.1 Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda ikkinchi tarafning talabi bilan bekor qilinishi mumkin. Shartnomani bir taraflama bekor qilish yozma taklif berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Taklif olingandan so'ng 30 kunlik muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

9.2 Taraflar o'zlarining yuridik manzillari va boshqa rekvizitlari o'zgarganligi xaqida bir-birlarini 3 kunlik muddatda xabardor qilishlari shart.

9.3 Shartnomaga xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yozma ravishda bajarilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan xoldagina xaqiqiydir.

9.4 Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi xam bir xil yuridik kuchga ega xisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

9.5 Shartnomaga ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

10. TARAFLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.

«TA'MINOTCHI»

"Marmarobod jilosi" fermer xo'jaligi

Manzil: G'ozg'on shahar Osiyo ko'chasi

Bank nomi: Milliy bank Navoiy shahar

Hisob raqam: 20208000200243830001

MFO: 00196 **INN:** 302668535

Tel/faks: 97 320-50-03

Rahbar: _____



«ISTE'MOLCHI»

"G'ozg'on shahar maktabgacha ta'lim bo'limi"

Manzil: G'ozg'on shahar A.Temur ko'chasi 1-uy

Bank nomi: Toshkent shahar Markaziy bank

SHXR: 100022860124127091100251001

MFO: 00014 **INN:** 207329765

Tel/faks: 91 438-96-96

G'aznachilik nomi: G'ozg'on shahar bo'limi

G'aznachilik hisob raqam: 23402000300100001010

G'aznachilik INN: 201122919

Rahbar: _____



G.Rahmatova